

SERJANTLAR FAOLIYATIDA IMIJNING PSIXOLOGIK TAVSIFLARI

Ravshanov Lochinbek Urinovich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
mutaxassislar tayyorlash markazi sikl boshlig'i,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor, podpolkovnik*

Annotatsiya: Mazkur maqola harbiy xizmatchilar faoliyatida imijning psixologik tavsiflariga bag'ishlangan. Maqolada harbiy faoliyat, harbiy xizmatchi shaxsi, harbiy xizmat talabi, ushbu harbiy xizmat turini tanlash yoki tanlamaslikning barcha psixologik sabalari ham keng yoritilgan. Keltirilgan mulohazalar, tahlillar adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan manbalar asosida amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy faoliyat, harbiy xizmat, harbiy nomzod, armiya, kasb, davogarlik motivi, psixologik tanlov, psixologik tayyorgarlik, yoshlar, harbiy kengash, mudofaa, komandir, harbiy xizmatchi imiji.

Annotation: This article is devoted to the psychological characteristics of the image in the activities of military personnel. The article also extensively covers military service, the personality of a military personnel, the requirements of military service, and all the psychological aspects of choosing or not choosing this type of military service. The presented considerations and analyses were carried out on the basis of the sources given in the list of literature..

Keywords: Military activity, military service, military candidate, army, profession, motive of application, psychological selection, psychological preparation, youth, military council, defense, commander, image of military serviceman.

Аннотация: Статья посвящена психологическим особенностям образа в деятельности военнослужащих. В статье подробно рассматриваются военная служба, личность военнослужащего, требования военной службы, а также все психологические аспекты выбора или отказа от выбора этого вида военной службы. Представленные рассуждения и анализы проведены на основе источников, указанных в списке литературы.

Ключевые слова: Воинская деятельность, военная служба, кандидат на военную службу, армия, профессия, мотив поступления, психологический отбор, психологическая подготовка, молодёжь, военный совет, оборона, командир, образ военнослужащего.

Davlatimiz fuqarolarining tinchligini va osuda hayotini ishonchli himoya qilishga qodir, zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan ta'minlangan, o'z kasbining yetuk mutaxassisi, harbiy professional va bugungi kun talablariga to'liq javob beradigan, tusatdan vujudga keladigan har qanday qurolli to'qnashuvlarni oldini

olishga tayyor turadigan tezkor va harakatchan Qurolli Kuchlarni vujudga keltirish – har bir davlatning buyuk kelajagini barpo etish yo‘lidagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 4 avgust kunidagi PQ-3898 – sonli qarori bilan, Qurolli Kuchlarimizdagi barcha harbiy qism va muassasalarda (alohida batalyonlarga) harbiy psixolog lavozimlarini joriy etilishi, qo‘shinlar jangovar shayligida harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini ta‘minlaydi.

Shuningdek, amalga oshirilayotgan ishlar natijasida vatanparvarlik tuyg‘usi yuksak, zamonaviy bilim, axloqiy-ruhiy holati barqaror, mustahkam iroda va qat‘iy hayotiy pozitsiyaga ega mard va jasur, fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini vijdonan, sadoqat va fidoyilik bilan bajarishga tayyor, o‘z kasbini butun vujudi bilan sevadigan har tomonlama yetuk harbiy kadrlar bir gap bilan aytganda, “Zamonaviy harbiy xizmatchi”lar shakllanmoqda, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu esa, biz e‘tibor qaratayotgan “Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining ijtimoiy-psixologik jihatlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi, qolaversa harbiy imij va uni tadqiq etishning psixologik metodikalari tizimini yaratishni taqozo etadi. Bu borada biz avvalo, nazariy va amaliy faoliyat jarayonlarida imijni shakllantirish muammosining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti bosqichlarini belgilashimiz muhim bo‘ladi. Bunda falsafa, psixologiya, pedagogika, imijologiyaga oid manbalarning atroflicha tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tadqiqotimizda imij fenomeni va uning ta‘rifi, imijning psixologik komponentlari, uni shakllanish rivojida ijtimoiy- psixologik, sotsiologik, madaniy-tarixiy va ilmiy-nazariy asoslarini xronologik tizimda tahlil etishga harakat qilamiz. Va uni harbiy xizmatchi faoliyati bilan ham bog‘lab tahlil etishga e‘tibor qaratamiz.

Tadqiqotlarda qaysi vaqtda imijni yaratishga zaruriyat paydo bo‘lganini taxmin qilishning imkoni yo‘q. Aynan qaysi bir mamlakatda ilk bora unga ehtiyoj tug‘ilganini va uning asoschisi kim ekanligini aytish ham mushkul. Imijni shakllantirishning ibtidoiy ko‘rinishlarini dastlabki jamoaviylik tuzumi bosqichida paydo bo‘la boshlagan, degan farazni ilgari surishimiz mumkin. Imijologiya zaruriyat sabab shakllantirilgan qiyofa va joziba yordamida insonlarni ishontrish, ta‘sir o‘tkazish, ularning hayot tarzini o‘zgartirishga asoslanadi. Imij XX asrning favqulodda hodisasi, biroq uning tub ildizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Jamoatchilik fikriga ta‘sir etish vositasi sifatida hali ta‘riflanmagan termin qadimgi zamonlardayoq faoliyatda mavjud bo‘lgan.

Imij fenomeni bo‘yicha dastlabki mutaxassis sifatida hukmdor Moiseyning yordamchisi ruhoni Aaron (miloddan avvalgi 1445 yil) tomonidan e‘tirof etiladi. Moiseyning duduqlanishi sababli uning o‘rniga xalq oldida Aaron gapirishga majbur bo‘lgan. Shu sabab ham uni xukmdorning og‘zi va bashoratchisi deb atashgan[1].

“Imij” tushunchasi asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etib bordi. Antik davrning mashhur mutafakkiri Aristotelning (miloddan avvalgi 384-322 yillar) ta’biricha, auditoriyaning xayrixohligi va mayliga erishibgina, ularni ishontirish mumkin[2]. Qadimgi Rimning davlat va siyosiy arbobi, ajoyib notiq Sitseron (miloddan avvalgi 106-43 yillar) ommaning psixologiyasi, qiziqishlari va didini o’rganish muhim ekanligiga urg’u bergan. Uning fikricha, notiqning vazifasi tinglovchilarni estetik ko’nglini olish, ularning axloqi va irodasiga ta’sir o’tkazishdir. Siyosiy arbob va sarkarda Yu.Sezar (miloddan avvalgi 102-44 yillar) ommaga ta’sir ko’rsatuvchi yorqin mahorat egasi edi. U harbiy janglar oldidan o’z murojaatlari va sahna ko’rinishlari yordamida xalqning qo’llab-quvvatlashiga erishgan.

Insoniyat tarixi shuni isbotlaydiki, imijni shakllantirish asrlar davomida o’z samarasini berib kelayotgan turli xil usul, uslub va omillarni o’z ichiga qamrab oladi. Notiqlik mahoratidan tashqari ramzlar, imijning har xil atributlari (kiyim, hidlar, bezak, imo-ishora, mimika va boshqalar). Tarixiy manbalarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, jamoatchilikka ta’sir etish asoslari janglarga tayyorgarlik ko’rish, siyosiy saylovlar jarayonida, mahsulotni savdoga olib chiqish, mablag’ yig’ish, odamlar va hodisalarni ommalashtirishda keng qo’llanilgan.

Siyosatshunos olim N.Makiavelli (1469-1527 yillar) imijning ilk nazariyachilardan biri hisoblanib, yuqori darajadagi “imij tuyg’usi” yoki yuksak “imij tafakkuri” unga xos bo’lgan. Bunday tafakkurning ahamiyatli tomoni shaxslararo makonda mulohaza qilish va ta’sir ko’rsatish, atrofdagilarning harakatini taxmin qilish, odamlar bilan iliq munosabatlarni o’rnatishni uddalashdan iborat edi[4]. Tadqiqotchilar N.Makiavelli va G.Lebon imijning amaliy ahamiyatini ilmiy-amaliy asoslab berishgan[3].

XX asrning boshlarida Rossiyada ham imijni shakllantirishning ijtimoiy roliga bag’ishlangan izlanishlar olib borilgan. M.S.Shepkin, V.I.Nemirovich-Danchenko, Ye.B.Vaxtangov va K.S.Stanislavskiylar badiiy obrazni yaratish usullarini tadqiq qilib, imijning ijtimoiy-psixologik jihatlariga e’tibor qaratishgan. K.S. Stanislavskiyning yozishicha, imij – inson faoliyati, muloqoti, xulq-atvori va tafakkurining obrazidir[4].

“Imij” fenomen tushunchasi XX asr davomida shakllangan ko’plab turli ta’rif va talqinlarga ega bo’lib, ayrim shakllari foydalanish jarayonida bir-birini inkor qiladi. Biz nufuzli adabiyotlar va ensiklopedik nashrlarni, shuningdek, bir guruh mualliflarning ta’riflarini tahliliga ko’ra, imij – ommalashtirish, reklama, e’tirof etilish maqsadida kimgadir hissiy-ruhiy ta’sir o’tkazadigan biror bir shaxs, xodisa, buyumning maqsadli shakllantirilgan obrazidir[5].

“Imij” tushunchasi ostida nufuzli va yuqori ijtimoiy mavqega ega bo’lgan inson obrazi ham tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, G.M.Andreyevaning talqini imij mohiyatini ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida obyektiv aks ettiradi: “Imij – bu idrok etish hodisasining

maxsus obrazidir. Shuning uchun ham obyekt yoki hodisaning hayoliy tasviri hissiy murojaatlar asosida yaratiladi”[6].

Demak, “imij” soʻzi ilmiy tushuncha sifatida ishlatilayotganiga hali koʻp boʻlmaganligi bois, aniq talqinga ega emas. Bu tushuncha psixologik bilimlarning koʻp qirralarini oʻzida birlashtirib, psixologiya, siyosatshunoslik, pedagogika kabi fanlarning turli tarmoqlarida ishlab chiqilgan. Imij nafaqat koʻriladigan obraz, balki shakl va mazmun jihatidan ichki va tashqi yaxlitlikning bir koʻrinishi sifatida ham tushuniladi.

Shu asnoda Qurolli Kuchlarning imiji haqida alohida fikr yuritish lozim. Taʼkidlash kerakki, armiyaning imiji odamlar ongida stixiyaviy (tasodifan paydo boʻlib qoluvchi) tarzda shakllangan siymo emas, balki, alohida subyektlar tomonidan maxsus yaratilgan va singdirilgandir. Imij abstrakt-nazariy darajada emas, balki hissiy darajada ommaviy ongga taʼsir oʻtkazishga qaratiladi. Bu mafkuraning bir elementi hisoblanadi, negaki maʼlum bir siyosiy subyektlarning qiziqishini ifodalaydi.

Falsafa fanlari doktori, general-leytenant V.V.Serebryannikov bu borada shunday yozadi: “Davlat tomonidan armiya xususida yaratiladigan imij katta ijtimoiy kuchga ega. Ishning toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganligi davlat imijini koʻtaradi, armiyaga nisbatan hurmat va harbiy xizmatchilarga ishonchni uygʻotadi, harbiylar va fuqarolarning jipsligini taʼminlaydi, aholining harbiy xizmatga hurmatini oshiradi. Bir soʻz bilan aytganda, armiya va mamlakatning xavfsizligini har tomonlama mustahkamlaydi”[7]. Davlat imiji doirasida Qurolli Kuchlarning quyidagi jihatlari aks etiladi:

- 1) mavjudligi;
- 2) maqsadi;
- 3) vazifalari;
- 4) maʼnaviy va axloqiy-psixologik xususiyatlari;
- 5) zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslahalar bilan taʼminlanganligi;
- 6) jangovar tarixi;
- 7) harbiy-jangovar anʼanalari;
- 8) istiqboli;
- 9) harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ahvoli;
- 10) yuqori harbiy kasb tayyorgarligi;
- 11) harbiy qoʻshinlarga xos belgi va nishonlarning maʼno-mazmuni.

Yuqorida berilgan tasniflardan koʻrinib turibdiki, armiyaning imiji bir qisqa vaqt davomida yaratib boʻlmaydigan, balki yetarli darajada tarixiy asoslarga ega va doimiy rivojlanib borilayotgan holatdir. Shuning uchun, mazkur masala toki Qurolli Kuchlarning toʻliq imiji yetarli darajada yaratilmaguncha muntazam tarzda tadqiq etishni talab etadi. Taʼkidlash kerakki, armiyaning imiji uni alohida okrug, qoʻshilmalar, harbiy qismlar va boʻlinmalarni hamda barcha turdagi komandirlar,

ofitserlar, shartnoma asosidagi harbiy xizmat serjantlari va oddiy askarlar toifasi hamda muddatli harbiy xizmatchi (askarlar) faoliyatini targ'ib etish asosida shakllanadi.

Qurolli Kuchlarning imijini to'g'ri shakllantirish va maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun ilmiy ahamiyat kasb etadi hamda Qurolli Kuchlarning yetuk imijini shakllantirishda quyidagi to'rt bo'limni o'z ichiga oladi[8]:

birinchidan, armiya haqida tarixiy xotiraning mavjudligi;

ikkinchidan, armiyaning o'tmishda Vatan himoyasi yo'lida ko'rsatgan jasorati;

uchinchidan, Qurolli Kuchlarning bugungi holati;

to'rtinchidan, Qurolli Kuchlarning kelajagi.

Uchinchi va to'rtinchi ko'rsatkichlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi ta'siri asosida o'zgarishi mumkin, lekin birinchi va ikkinchi bo'lim xususiyatlari o'zgarmaydi.

Qurolli Kuchlar imijining amaliy ahamiyatini qanday aniqlash mumkin yoki uni qanday ko'rsatkichlar asosida tavsiflash lozim? Buning uchun quyidagi asosiy omillar e'tiborga olinishi zarur:

birinchidan, armiya safida xizmat qiluvchilar sonining o'sib borishi;

ikkinchidan, mamlakat aholisida armiyaga nisbatan xayrixohlarcha munosabatning ifodalanishi;

uchinchidan, turli toifadagi harbiy xizmatchilarning o'z kasbidan yuqori darajada qoniqqanligi.

Bu omillar ko'rsatkichining yaxlit, ya'ni o'zaro bog'langan tarzda tahlil etilishi Qurolli Kuchlar imijini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qurolli Kuchlarning asosiy richagi va obyekti harbiy xizmatchilar (ofitser, serjant, askar) hisoblanadi. Demak, hozirgi kunda harbiy xizmatchi imijining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish muhim sanaladi. Chunki, harbiy xizmatchining ijobiy imij bilan shakllanganligi, Qurolli Kuchlar imijini yetukligi bilan baholanadi.

Har bir kasb o'z rivojlanish tarixiga ega bo'lib, bir-biridan farqli jihatlari mavjud. Masalan, harbiylik, jurnalistika, tibbiyot va uchuvchilik kabi ixtisosliklar zo'riqish (stress)ning kuchli darajada namoyon bo'lishi tufayli boshqa kasblardan ajralib turadi. Bu kasb egalari turli vaziyat, holat va hududlarda, vaqtning chegaralanganligida faoliyat yuritishi zarurligi, hatto xavf bilan bevosita yuzma-yuz bo'lgan davrda ham o'z vazifalarini bajarishlari zarur ekanligi bilan ajralib turadi.

Harbiy yo'nalishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ko'plab harbiy ixtisosliklar ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lib, ijtimoiy-kasbiy tavsifnomalar, kasbiy talabnomalar ishlab chiqilgan. Biroq, mazkur ishlarda kasb egallovchining individual fazilatlari, psixofiziologik va ijtimoiy xususiyatlariga (etnomadaniy, gender, yosh va boshqalar) e'tibor qaratilmay, faqat kasbiy layoqatlilik darajasi, ya'ni "inson-kasb" tizimi doirasidagi jihatlar hisobga olingan.

Harbiy kasblar o'z xarakteri va tendensiyasiga ega bo'lib, unda harbiy xizmatchi shaxsining xususiyatlari alohida o'rin tutadi va ularni to'rtta guruhga ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- 1) harbiy xizmatchining umumiy sifatleri;
- 2) harbiy xizmatchining mutaxassis sifatidagi fazilatlari;
- 3) harbiy xizmatchining jangovar sifatleri;
- 4) harbiy mutaxassisning xizmat-vazifaviy sifatleri.

Albatta, bu sifatlar yoshlarimizni harbiy xizmatga tanlash va tayyorlash jarayonida alohida inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda mamlakatimizda mazkur tizimni joriy etish bo'yicha alohida yondashuv vujudga kelgan. Masalan, hududlardagi Mudofaa ishlari bo'limlarida yoshlarni Qurolli Kuchlarimiz saflariga muddatli harbiy xizmatga yuborishdan oldin psixodiagnostik testlar orqali harbiylikka loyqlik darajasini o'rganishi yo'lga qo'yilgan.

Ta'kidlash lozimki, harbiy xizmatga nomzodni psixologik o'rganish uchun, birinchidan alohida o'rganish dastur yaratilishi lozim va u anketa, psixodiagnostik test va metodikalar asosida psixofiziologik, individual psixologik xususiyatlar qatori etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o'rganiluvchiga psixologik tavsif bera olishi zarur. Biron bir test va metodikadan foydalanish davomida ularning moslashtirilganlik darajasiga alohida e'tibor qaratish zarur, chunki ba'zida ularni faqatgina o'zbek tiliga tarjima qilishning o'zi kifoya emas. Harbiy faoliyatni ilmiy tadqiq etish va Qurolli Kuchlarda xizmatni o'tash tajribalari va ekspert so'rovlarning natijalari asosida ta'kidlash zarurki, tanlangan test va metodikalar harbiy xizmatchilarni harbiy muhitga moslashuvchanlik, muloqotga kirishuvchanlik, jamoa bilan munosabatda bo'la olish, zo'riqishli vaziyatlarda o'zini tuta bilish, vaqt tig'izligida ishchanlikni saqlay olish, harbiy texnika va qurol-yaroqqa to'g'ri munosabatda bo'lish, tolerantlik kabi xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi shart.

Mazkur yondashuv, nafaqat Qurolli Kuchlarimiz imijini ko'tarishga, balki harbiy faoliyat talablariga binoan subyektning funksional holatini, jismoniy va psixologik mosligini belgilashga yo'naltirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchi imijining ijtimoiy-psixologik tadqiqi o'z ichida harbiy qiyofa, kasbiy kompetentlik, harbiy professionallik, axloqiy qiyofa, milliy ong, milliy g'urur, ijtimoiy qiyofa, kasbiy qiyofa, harbiy burch, kasbiy kamolot, shaxsdagi yuksak hislar, intizom, sabr-toqat, dadillik, mehnatsevarlik, jasurlik, jangovor shaylik, psixologik tayyorgarlik, altruizm (o'zini fido qilish) kabi qator ijobiy sifatleri harbiy xizmatchilarda qay darajada shakllanganligini asoslab berishi ehtimoldan holi emas.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Утлик Э.П. Практическая психология имиджа // Вестник университета. Сер.

- Социология и психология управления. М.: ГУУ, 1999. С.47.
2. Аристотель. Поэтика // Аристотель. Соч.: В 4 т. М., 1984. С.78
 3. Макиавелли Н. Государь. Минск, 1998. С.35
 4. Станиславский К.С. Работа актера над собой. М.: Артист. Режиссер. Театр, 2002. С.488.
 5. Нефедова И., Власова Е. Я и мой имидж. М.: ЭКСМО-Пресс, 1997. С.78.
 6. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений.-М.Аспект Пресс,2001.
 7. Серебрянников В.В. Социология войны.М.:Ось-:1998Энциклопедический словарь / Ред. кол.: В.И. Бородулин, А.П. Горкин, А.А. Гусев, Н.М. Ланда и др. М.: Большая Рос. энцикл., 1997. С.894.
 8. Ravshanov L.U. Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbar imijining ijtimoiy-psixologik konsepsiyasi. diss... DSc. O'zMU. T.: 2024 y. 47 b.